

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi

25-mavzu: “Muqaddas ayol”

Umumiy maqsad:

Annotatsiya: Ushbu mavzu 1-4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ayolga hurmat, buvi, ona, opa-singillarga e‘tibor ko‘rsatish, ularni hurmat qilish kabi tushunchalar bolalarga sodda va ravon tarzda tushuntirib beriladi. Dars davomida o‘quvchilar ayol – ona, opa, singil, ustoz sifatida bizning hayotimizdagi eng mehribon va muhim insonlar ekani haqida ma‘lumot oladilar. Bola ongiga “ayollarni e‘zozlash” – bu mehribon bo‘lish, yordam berish, tinchlik yaratish ekanligi singdiriladi. Darsda hikmatli so‘zlar, rasmlar, kichik video lavhalar va real hayotdan misollarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda ayollarga nisbatan hurmat, minnatdorlik va ehtirom tuyg‘ulari yanada mustahkamlanadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarga ayolning hayotdagi o‘rni va qadri haqida tushuncha berish.
2. Ayol ona, opa, singil, muallima sifatida mehr va sabr manbai ekanini anglashga o‘rgatish.
3. O‘quvchilarda ayollarga hurmat, ehtirom, minnatdorlik tuyg‘usini shakllantirish.
4. O‘quvchilarni oilada onaga, opa-singilga, ustozlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yo‘naltirish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, videoparchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ✓ ssenariy;
- ✓ uslubiy tavsiyalar;
- ✓ videomateriallar;
- ✓ interaktiv topshiriqlar;
- ✓ taqdimot.

Dars ssenariysi

I. KIRISH – Motivatsion qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi darsni quvnoq kayfiyatda boshlaydi.

O‘qituvchi (*tabassum bilan*): Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Kelinglar, bugun kichkina bir o‘yin o‘ynaymiz. Men sizlarga bir nechta so‘z aytaman. Siz esa shu so‘zni eshitib, xayolingizga kelgan eng chiroyli narsani aytasiz. Tayyormisiz?

Bolalar: *Ha!*

O‘qituvchi: **MEHR**

Bolalar: iliqlik, yaxshilik, quchoq, kulgi...

O‘qituvchi: **G‘AMXO‘RLIK**

Bolalar javoblari...

O‘qituvchi (*biroz pauza qilib, ohangni yumshatib*): **AYOL**

Bolalar: Ona, buvi, opa, ustoz, singil...

O‘qituvchi: Qaranglar-a, qiziq-a...

Mehr desak ham, g‘amxo‘rlik desak ham, ayol desak ham – hammasi bir-biriga juda yaqin tushunchalar ekan. Nega shunaqa? Fikringiz?

Bolalar fikr bildiradi.

O‘qituvchi: Chunki ayollar hayotimizga mehr, sabr, go‘zallik, yaxshilik olib kiradi. Shuning uchun ham bugungi darsimiz: **“Muqaddas ayol”** deb nomlanadi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, ayting-ch, Siz hayotingizda qaysi ayolni juda hurmat qilasiz?

Bolalar: Ona, buvi, opa, xola, ustoz...

O‘qituvchi: Bolajonlar, hozir sizlar bilan juda qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz.

Men bir insonni tasvirlab beraman. Siz esa diqqat bilan eshitasiz va bu kim ekanini topasiz. Tayyormisiz?

Bolalar: *Ha!*

O‘qituvchi: Bu inson...

- ✓ doim mehribon;
- ✓ ba‘zan bizni koyiydi, lekin baribir yaxshi ko‘radi;
- ✓ kasal bo‘lsak yonimizdan ketmaydi;
- ✓ quvonsak, eng ko‘p xursand bo‘ladi;
- ✓ biz uchun hech qachon charchamaydigandek tuyuladi...

Bu kim?

Bolalar: **ONA!**

O‘qituvchi: To‘g‘ri! Endi yana bittasini eshiting.

Bu inson:

- ✓ juda muloyim;
- ✓ ertaklarni juda chiroyli aytadi;

- ✓ duo qiladi;
- ✓ bizni erkalaydi;
- ✓ yonida o'tirish juda yoqimli...

Bu kim?

Bolalar: **BUVI**

O'qituvchi: Bu inson:

- ✓ bizga yordam beradi;
- ✓ ba'zan daftirimizni ko'radi;
- ✓ bizni himoya qiladi;
- ✓ biz bilan o'ynaydi;
- ✓ uyda eng yaqin do'stimiz...

Bu kim?

Bolalar: **OPA / SINGIL**

O'qituvchi: Bugungi darsimizda biz nima uchun ular muqaddas deyilishini tushunishga harakat qilamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Bolajonlar, biz hozir juda chiroyli bir so'z aytdik – **“muqaddas”**. Kelinglar, avval shu so'zning o'zi nimani anglatishini birgalikda tushunib olaylik.

Sizningcha, muqaddas degani qanday bo'ladi?

(Bolalar javob beradi)

O'qituvchi: To'g'ri aytasizlar. Muqaddas degani – juda aziz, juda qadrli, juda hurmat qilinadigan degani. Masalan, biz Vatanimizni muqaddas deymiz. Nega? Chunki u biz uchun eng qadrli. Ota-onamizni ham aziz deymiz. Nega? Chunki ular bizni yaxshi ko'radi.

Demak, muqaddas degani – oddiy so'z emas. Juda katta, juda chiroyli ma'no bor bu so'zda.

Endi o'ylab ko'raylik... Nima uchun ayollarni ham muqaddas deymiz?

(Bolalar javob beradi)

O'qituvchi: Juda to'g'ri. Ayollar – bu bizning onamiz, buvimiz, opa-singillarimiz, ular biz uchun eng qadrli insonlardir.

Ayting-chi bolajonlar, onangiz siz uchun nima qiladi? Kasal bo'lsangiz, kim yoningizdan ketmaydi? Xafa bo'lsangiz, kim sizni yupatadi?

(Bolalar javoblari)

O'qituvchi: Ha... Ona faqat ovqat tayyorlaydigan yoki kiyim yuvadigan inson emas. Ona – bu mehr. Ona – bu himoya. Ona – bu doim yonimizda turadigan eng yaqin inson.

Ona bizni hech qachon yomon ko‘rmaydi. Hatto koyisa ham, baribir biz uchun qayg‘uradi. Ayollar bizga onalik qilib, doim atrofimizda parvona bo‘lib, bizni parvarishlab voyaga yetkazishdan tashqari jamiyat uchun ham katta ishlar qilishgan. Kelinglar, hozir ham bola parvarishlab, ham jamiyatni o‘zgartirgan ana shunday ayollar haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

O‘z sohasida birinchi bo‘lgan o‘zbek ayollari

<https://youtu.be/DSCSG4GCE4M>

O‘qituvchi: Videoni tomosha qildik. Endi aytinglar-chi, qaysi ayolning qilgan ishi, birinchiligi sizga yoqdi? Nima uchun?

(Bolalar javoblari)

O‘qituvchi: Endi buvilar haqida gaplashamiz... Buvingiz sizga qanday munosabatda bo‘ladi? Ular nimasi bilan boshqacha?

(Bolalar javoblari)

O‘qituvchi: Buvilar – bu xonadondagi eng katta mehr manbalaridan biri. Ularning gaplari muloyim, duolari samimiy, bag‘rikeng bo‘ladi. Shuning uchun ham buvilarimiz bizga juda aziz, qadrdon. Ular hayotga, muammolarga boshqacha qarashadi, juda tajribali, donishmand bo‘lishadi. Ko‘pincha oyimiz yo dadamiz koyisa, yonimizni oladigan ham shu buvilarimiz, shundaymi?

Qani kim buvisini yaxshi ko‘radi, qo‘lini ko‘tarsin?

Bolalar qo‘llarini ko‘tarishadi.

O‘qituvchi: Barakalla, buvilaringizni juda yaxshi ko‘rar ekansiz. Albatta, axir ular uyimizning kattasi, eng obro‘li insonlardir.

Bolajonlar! Uyda opa-singillar ham bor, to‘g‘rimi? Kimda opa yoki singil bor?

(Bolalar qo‘llarini ko‘taradilar)

O‘qituvchi: Opangiz sizga qanday yordam beradi? Singlingiz bilan qanday o‘ynaysiz?

(Bolalar javoblari)

O‘qituvchi: Ba‘zan urishib ham qolasizlar, lekin baribir bir-biringizni yaxshi ko‘rasizlar-a? Chunki oila – bu mehrli joy.

Opa va singillarga hech qachon behurmatlik qilib yomon gapirmaslik, kuch ishlatmaslik kerak. Agar hamma qizlarni o‘z opa-singillaringiz o‘rniga qo‘yib tasavvur qilib ko‘rsangiz, ularni hech qachon xafa qilmaysiz.

Mini-interaktiv mashq

O‘qituvchi: Bolajonlar, hozir kichkina bir mashq qilamiz.

Iltimos, hammangiz ko‘zingizni yuming... Tasavvur qiling, sizni juda yaxshi ko‘radigan bir ayol bor. U sizga mehr beradi. Sizni asraydi. Siz uchun qayg‘uradi.

Kimni ko‘rdingiz?

(Biroz sukut)

O‘qituvchi: Endi ko‘zingizni oching. Kimni esladingiz?

(Bolalar javoblari)

O‘qituvchi: Qaranglar-a... Hammamizning hayotimizda shunday aziz insonlar bor ekan. Demak, ayol – bu faqat oila a‘zosi emas. Ayol – bu mehr, iliqlik, ishonch degani.

Lekin biz har doim ham ularni xursand qilavermaymiz. Ba’zida ranjitamiz. Qilgan g‘amxo‘rliklari uchun rahmat demaymiz, ranjitsak ba’zan uzr so‘ramaymiz, yaxshi ko‘rishimizni ham ko‘pincha aytmaymiz. Aslida bularning barchasini aytishimiz kerak. Hozir sizlarga namoyish etiladigan videorolik qahramonlari shu so‘zlarni chiroyli qilib aytishadi. Tomosha qilib o‘rganib oling va siz ham onalaringiz, buvilaringiz, opalaringizga shunday iliq so‘zlarni ayting – xursand bo‘lishadi.

Vizual kontent

Borligingiz uchun rahmat!

<https://youtu.be/ookKHJQLiqs>

Video muhokamasi (2 daqiqa)

O‘qituvchi: Endi kutilmagan savol: sizlar metroda mashinist kabinasiga kirib ko‘rishni hech orzu qilganmisiz? Yoki metro mashinisti u boshidagi vagondan bu boshidagisiga qanday o‘tib qolishini hech o‘ylab ko‘rganmisizlar? Hozir shu savollarga javob beruvchi videoni ko‘ramiz. Ketdik!

Vizual kontent

Keyingi bekat: Toshkent metropoliteni

https://youtu.be/eFd_w9XEoPI

O‘qituvchi: Qalay, bolajonlar, qiziq bo‘ldimi? Xo‘sh, orangizda poyezd mashinisti kasbini tanlashga qiziqqanlar paydo bo‘ldimi? Qo‘lingizni ko‘taring-chi! Qani, qizlar, sizlar-chi?

Istak bildirgan bolalar qo‘llarini ko‘taradilar.

O‘qituvchi: Barakalla! Agar yaxshi o‘qisangiz va intilsangiz, albatta niyatingizga yetasiz.

Buning uchun sizga davlatimiz va Prezidentimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqdalar. Bugun davlatimiz tomonidan qizlarimizning ta’lim olishi,

universitetlarga kirishi va magistraturani o‘qib, olima bo‘lishi uchun ham sharoitlar yaratilgan. Buning uchun hurmatli Prezidentimizga rahmat deymiz-a, bolalar?!

Bolalar: Rahmat!!!

O‘qituvchi: Barakalla, bolajonlar.

3. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz bolajonlar, bugun biz juda chiroyli va juda muhim mavzuda suhbatlashdik. Biz ayollar haqida gaplashdik. Onalar, buvilar, opa-singillar haqida o‘yladik.

Bir narsani unutmaylik... Hayotimizdagi eng katta mehr kimdan boshlanadi? Eng samimiy quchoq kimniki?

Bolalar: Onamizniki! Buvimizniki!

O‘qituvchi: Bugundan boshlab kichkina, lekin juda muhim odat qilamizmi?

✓ Onamizga va buvimizga chiroyli so‘z aytamiz;

✓ Opa va singillarimizni ranjitmaymiz;

✓ Buvi, ona, opa-singillarimizga doim yordam beramiz.

Chunki mehrni qadrlagan bola – eng baxtli bola bo‘ladi.

Bolajonlar, endi darsimizni yoqimli tarzda yakunlaymiz. Hammamiz birgalikda neyrogimnastika bilan shug‘ullanamiz. Barchamiz o‘rnimizdan turamiz. Hozir sizlarga video qo‘yib beraman. Tasavvur qiling, siz dirijyorsiz, qo‘lingizda dirijyor tayoqchasi. Videoda chiqqan shakllarga mos qo‘llaringizni harakatlantiring. Qiziq gimnastika bo‘ladi, tomirlarda qoningizni yurishtirib, miya faoliyatini yaxshilaydi. Qani, boshladik!

Vizual kontent

Tasavvur qiling, siz dirijyorsiz

<https://youtu.be/3vSZVhMljs4>

O‘qituvchi: Juda ajoyib, bolajonlar! Vazifani yaxshi uddaladingiz. Mana shunday mehr bilan qilingan har bir ish sizlarni rivojlantiradi.

Hademay 8-mart – onajonlarimiz bayrami keladi. Sizlar onajonlaringiz, buvilaringiz, opa va singillaringizni ushbu bayram bilan tabriklab qo‘ying. Sovg‘a esa – bu sizning yaxshi o‘qishingiz, olgan 5 baholaringiz bo‘ladi. Hamma yaxshi o‘qib, oyisiga 5 baho sovg‘a qila oladi, deb ishonaman.

Bugungi darsimiz uchun hammangizga katta rahmat. Mehrli, odobli va ota-onasini qadrlaydigan bolalar bo‘lib ulg‘aying.

Dars tugadi. Xayr, bolajonlar!

Bolalar: Xayr, ustoz!